

**BEGALI QOSIMOV, BOQIJON TO‘XLIYEV,
QOZOQBOY YO‘LDOSHEV**

ADABIYOT

10- sinf uchun darslik

Ikkinchchi nashri

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
tomonidan tasdiqlangan*

MA’NAVIYAT KO‘ZGUSI

Inson ko‘ngli borligi, ruhiyatga egaligi bilan boshqa jonzotlardan farq qiladi. Shu vaqtga qadar o‘tgan barcha buyuk zotlar odamlar ko‘nglini poklash, ruhini g‘uborlardan tozalashga harakat qilganlar. Inson ko‘ngli va ruhi pokizaligiga bu qadar katta e’tibor qaratilishining sababi pokiza ko‘ngil va toza ruh bo‘lgan kishidagina ezgulikka, yaxshilikka, oliyjanoblikka mayl bo‘ladi. Toza ruh hamda pokiza ko‘ngil esa o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Ularni qaror toptirish, shakllantirish uchun har bir odam tozarish yo‘lini o‘tashi, o‘zgalarning ko‘nglidagi holatlarni ilg‘aydigan darajaga ko‘tarilishi lozim bo‘ladi. Ayni shu jarayonda badiiy adabiyotning zimmasiga ulkan vazifa yuklatilgani anglashiladi. Faqat badiiy asargina odamga o‘zga kishilarni tushunish, anglash, tuyish imkonini beradi. Chunki badiiy asarlarda boshqa odamlarning ko‘ngil manzaralari, ruhiyat chizgilari ta’sirli yo‘sinda aks ettiriladi.

Badiiy adabiyot inson ruhidagi nozik tovlanish va hissiyotidagi chigal jarayonlarni ilg‘ash hamda aks ettirishga xizmat qiladi. Chinakam badiiy asar insonni to‘lqinlantiradigan, hayajonga soladigan o‘y-fikrlar, orzu-umidlar, sezgi va kechinmalarni ifodalaydi. Dunyoda yashayotgan odamlar bir-birlariga o‘xshamaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. O‘zbek adabiyoti— inson ruhiy holatlari mahorat bilan aks ettirilgan durdonalarga boy. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg‘ota olishi bilan ularning ma’naviy takomiliga hissa qo‘sadi. Muhimi, ular kishiga faqat ma’rifat beribgina qolmay, uning badiiy didi takomiliga, ma’naviy kamolotiga ham xizmat qiladi.

Ma’naviyatning mavjudligi insonni olamdagи boshqa jonzotlardan ajratib turadi. Ma’naviyatning mag‘zini esa badiiy adabiyot tashkil qiladi. Chiqish (Sharq)da bu tushuncha, birinchi navbatda, *adab* (ko‘pligi—*odob*) bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, „Adabiyot“ atamasi „adab“ so‘zidan olingan. Adabning ma’nosи keng: yurish-turish odobi, so‘zlash odobi, ovqatlanish odobi, muomala odobi va b. Shu jihatdan adabiyot odobshunoslikdir. Ammo adabiyot odob o‘rgatish bilangina cheklanib qolmaydi. U bizga inson hayotini, uning sezimlarini ko‘rsatib beradi. Uning qalbi, orzu-intilishlari, sevinch-armonlari, qayg‘u-iztiroblari, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy borlig‘ini namoyon etadi. Demak, adabiyot insonshunoslik, ruhshunoslik hamdir.

So‘zlar badiiy matnning yuzaga kelishiga omil bo‘ladi, ammo har qanday matn va so‘z badiiy adabiyotga daxldor bo‘lavermaydi. Buning uchun so‘z muayyan estetik vazifani bajarishi lozim. Shunga ko‘ra ham badiiy adabiyot voqeа-hodisalar, insoniy kechinmalar, his-tuyg‘ularni bayon qilmaydi, balki ularni tasvirlaydi. Tasvir so‘zga tayanadi. So‘z sehr, mo‘jiza bilan o‘ziga mahliyo qiladi, rom etadi. Shuning uchun go‘dak allaga, kichik yoshdagi bola ertakka, kattalar badiiy ijodning turli ko‘rinishlariga nihoyatda qiziqib

qaraydilar. Ularning olamiga kirib qolgach, o‘zlarini ham shu olamga mansub hisoblaydilar, chiqib ketolmaydilar.

Odamlar muayyan zamon va makonda yashaydilar, ya’ni har bir kishining umr bosqichlari, tug‘ilib, faoliyat ko‘rsatadigan joyi, o‘z hayoti bor. Ular yashash uchun, muayyan ideallar uchun kurashadilar, yengadilar, yengiladilar. Biz buni tarix deymiz. Adabiyot inson faoliyatini yoritar ekan, o‘z-o‘zidan uning tarixini ham yaratadi. Demak, adabiyot tarix hamdir. Biz yashab turgan Turkiston esa dunyoning inson bolasi bino bo‘lgan eng qadim tarixiy beshiklaridandir. Farg‘ona vodiysining Selungur g‘oridan topilgan suyaklar bu yerda million yil oldin ham odam yashaganligini ko‘rsatdi. „Avesto“ kitobi davlatchiligidan salkam uch ming yillik tarixiga guvohdir. „Devonu lug‘otit turk“ka kiritilgan „Alp Er To‘nga marsiyasi“ miloddan yetti asr oldingi qudratli Saqalar davlati va uning mashhur sarkardasi sha’niga bitilgan yo‘qlov madhiyasidir. „Ko‘kturk bitiklari“, „O‘rxun-Enasoy yodgorliklari“ nomlari bilan shuhrat topgan obidalar, xususan, Bilga xoqon va Kultigin e’tiroflari ajdodlarimizning jang-u jadallarga to‘la hayotidan darak beradi.

Adabiyotimizga IX—X asrlarda yangi islomiy ruh, islomiy mazmun kirib keldi. Islom madaniyati shakllandi. Imom Buxoriyning „As-sahih“ to‘plami bashariyat ma’naviyatidagi yangi hodisa bo‘ldi. X—XII asrlarda hayotni islomiy-turkiy idrok etuvchi yana bir yangi hodisa — didaktik dostonchilik maydonga keldi. Yusuf xos Hojibning „Qutadg‘u bilig“ asari buning yorqin namunasi edi. Bu davr ilk uyg‘onish davri edi. XIV asrning o‘rtalaridan adabiyotimizda Yaqin va O‘rta Sharq adabiyoti uchun xos bo‘lgan mushtarak xususiyatlar kuchayib bordi. Mumtoz adabiyotimizning ilk bosqichi boshlandi. Bu yo‘l—yo‘nalish turkiy madaniyat rivojining oltin asri — Navoiy davriga olib keldi. Adabiyot musulmon Renessansi atalmish tarixiy bosqichga ko‘tarildi.

Adabiy hayot ham jamiyat hayotiga o‘xshab taraqqiy etadigan bir hodisadir. U jamiyat bilan birga mavjud bo‘ladi, undan ajralmaydi. Ayni vaqtida, adabiyotning o‘sishi o‘z qonunlari asosida sodir bo‘ladi. Shu ma’noda badiiy adabiyotni jamiyatning ko‘zgusigina deb qarash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Biror adabiyotning boshdan oxir tekis rivojlanishi mumkin emas. Badiiy adabiyotning ham avj nuqtalari, pasayish bosqichlari bo‘ladi. XVII—XIX asrlarni mutaxassislar adabiyotimizning nisbatan pasayish davri deb qaraydilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o‘z mustaqillagini yo‘qotdi. Millat xuddi shu davrga kelib siyosiy-iqtisodiy, harbiy-texnikaviy jihatdan ilgarilab ketgan Rusiyaga tobe bo‘lib qoldi. Turkistonni ruslashtirish, millatni ma’nан mahv etish, yurt boyliklarini tashib ketish avj oldi. Bu hol millatning o‘ychil farzandlarini bezovta qilmasligi mumkin emasdi. Lekin ayrim kishilarning urinishi samara bermasligi ham oydin edi. Shu bois, millatni uyg‘otish, uni tarixiy hodisalarining kuzatuvchisidan qatnashchisiga aylantirish kerak edi. O‘zligini anglagan millat ilg‘orlari hayot-mamot jangiga kirishdilar. Adabiyot bu jangda eng qudratli qurol edi. Shu vaqtga qadar badiiy adabiyot ijtimoiy

„Malika ayyor“ dostoni	9
<i>Xalq dostonlari haqida</i>	27
Xalq qo‘shiqlari	30

ISLOMGACHA BO‘LGAN DAVRDAGI TURKIY ADABIYOT

Qadimgi adabiy yodgorliklar	38
--	----

ISLOM TA’SIRI DAVRIDAGI TURKIY ADABIYOT

Ilk uyg‘onish davridagi turkiy adabiyot	50
--	----

Yusuf xos Hojib	63
<i>Didaktik doston</i>	75
Ahmad Yugnakiy	76
Ahmad Yassaviy	86
<i>Hikmatlar</i>	105
XIII — XIV asrlar adabiyoti	106
Nosiruddin Rabg‘uziy	112

UYG‘ONISH DAVRI O‘ZBEK ADABIYOTI

XIV asrning ikkinchi yarmidan XVII asrgacha bo‘lgan adabiyot	120
---	-----

Atoyi	128
Sakkokiy	137
<i>Qasida</i>	146
Lutfiy	147
<i>Tuyuq va qit’ा</i>	158
<i>Irsoli masal, talmeh hamda laf va nashr san’atlari</i>	159
Alisher Navoiy	160
Ulkan lirik meros.....	171
G‘azal mulkining sultonı	172
„Xamsa“.....	201
<i>Tasavvuf va adabiyot</i>	233
Muhammad Solih	236
Mumtoz adabiyotning asosiy xususiyatlari	243
Xoja	246
<i>Mumtoz hikoya</i>	255
Zahiriddin Muhammad Bobur	256
Bobur lirikasi	263
„Boburnoma“	275

XONLIKlar DAVRI O'ZBEK ADABIYOTI

XVII asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrdagi adabiyot	282
Turdi Farog'iy	287
Boborahim Mashrab	297
<i>Ma'naviy san'atlar</i>	313
Gulxaniy	315
<i>Hajviyot</i>	323
Shermuhammad Munis	325
Amiriyy	335
Jahon Otin Uvaysiy	343
Nodira	350
Muhammad Rizo Ogahiy	359
<i>Tardi aks, raddi matla</i>	380

JAHON ADABIYOTIDAN

Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy	381
Mirzo G'olib	390

BEGALI QOSIMOV, BOQIJON TO'XLIYEV,

QOZOQBOY YO'LDOSHEV

ADABIYOT

10- sinf uchun darslik

Toshkent — 2005

Muharrir *G. Nasriddinova*
 Badiiy muharrir *Sh. Qahhorov*
 Muqova rassomi *Sh. Xo'jayev*
 Texnik muharrir *S. Tursunova*
 Musahhihlar: *A. Ibrohimov, Z. Sodiqova*
 Kompyuterda sahifalovchi *F. Sodiqova*

IB № 8263

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi. 16.05.2005. Bichimi 60 r 90
 1/16. Kegli 11 shponli. Tayms. garn. Ofset bosma usulida bosildi.
 Shartli b.t. 25,0. Nashr. t. 25,0. nusxada bosildi. Buyurtma № .
 Bahosi so'm.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa
 ijodiy uyi. Toshkent — 129. Navoiy ko'chasi, 30- uy. // Toshkent, Yunusobod
 dahasi, Murodov ko'chasi. 1- uy. 2004. Sharhnomalar № 12—141—
 05.